



SINONIMLARNI O'QITISHDA DIDAKTIK O'YINLAR VA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH ORQALI O'QUVCHILARNING SO'Z BOYLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya:

Maqolada o'zbek tilshunosligidagi so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlaridan biri bo'lgan sinonim so'zlarni maktab o'quvchilariga ta'lim jarayonida o'qitish va ularning so'z boyligini oshirishga qaratilgan turli metodlardan foydalanish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar:

sinonim so'zlar, didaktik o'yinlar, "Kun va Tun", "So'z top", "Dovomini top", metod, sinonimik qator, "qor bo'ron" metodi, "miya hujumi" metodi, "Akademik munozara" metodi "aqliy hujum" metodi.

**Information about
the authors**

Aliqulova Dilafruz Oybek qizi

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Tillar fakulteti 3-bosqich
talabasi*

Pardayev Sirojiddin Shokir o'g'li

Ilmiy rahbar

Maktab ona tili darsligida "so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga kora turlari" mavzusini o'qitishning maqsadi amaliy tomonga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarda so'zlarning ma'nolarini bilish, farqlash va ularni nutqda to'g'ri qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirishdir. Maqolamizdan o'rin olgan sinonimlarni o'qitish orqali o'quvchilarda bir so'zning turli ma'noga ega ekanligini ko'rsatish, so'zlarni nutqda to'g'ri qo'llash ko'nikmasini shakllantiradi va imlo savodxonligini oshirishga yordam beradi. Bugungi kunda ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishda turli metodlardan, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish qo'l kelmoqda. O'quvchilarga bunday usullarda dars tashkil etilsa, mavzu o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishi va mavzuni tez tushunish imkonini beradi.

Sinonimlar –ma'nodosh so'zlar -shakli har xil, lekin ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlar bo'lib, har bir tilning nutq boyligi hisoblanadi.

Sinonim grekcha so'z bo'lib, bir nomli degan ma'noni anglatadi. Sinonim so'zlar bir umumiyligi ma'no asosida ma'nodoshlik qatorini hosil qiladi, biroq ular bir-biridan turli ma'no nozikliklari bilan ajralib turadi. Bunday xususiyatga ega bo'lmagan so'z esa neytral so'z - dominanta hisoblanadi va shu qatorning asoschisi sifatida qator boshida turadi. Masalan yuz- aft, bashara, chehra, turq, jamol, oraz, nusxa, bet kabi. Bunda yuz so'zi neytral so'z hisoblanadi¹. Sinonim so'zlar nutqning ravon va ta'sirchan bo'lishiga yordam beradi, so'z boyligimizni oshiradi. Masalan **chiroyli** so'zini olaylik, o'quvchining nutqida insonni yoki biror predmet, voqe-a-hodisani tasvirlash

¹ Hozirgi o'zbek adabiy tili: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma / X. Muhiddinova, D. Xudayberganova, I. Umurov va boshqalar.

uchun birgina shu chiroyli so‘zi bor. Lekin sinonimik qatorda chiroyli so‘zini ifodalovchi bir qancha so‘zlar ham bor. Masalan, chiroyli- go‘zal, husunli, husndor, xushro‘y, ko‘hli, zebo, suluv, sohibjamol kabi. Bu so‘zlarni bilgan va undan to‘g‘ri foydalana olgan o‘quvchining nutqi ravon va yanada ta‘sirchan bo‘ladi. Maktab o‘quvchilariga sinonim so‘zlarni o‘qitish va tushuntirishda turli interfaol metodlardan foydalanilsa, dars tushunarli va qiziqarli bo‘ladi.

O‘quvchilarga bir xil tarzda dars o‘tilsa ular zerikib qolishlari mumkin. Shuning uchun dars o‘tish jarayonida har xil o‘yinlardan foydalanilsa dars tushunarli va yanada qiziqarli o‘tishi mumkin. Ta’lim jarayonida didaktik o‘yinli texnologiyalar didaktik o‘yinli dars shaklida qo‘llaniladi. Ushbu darslarda o‘quvchilarning bilim olish jarayoni o‘yin faoliyati orqali uyg‘unlashdiriladi. Shu sababli o‘quvchilarning ta’lim olish faoliyati o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashgan darslar didaktik o‘yinli darslar deb ataladi. Didaktik o‘yinlar 3 turga bo‘linadi.

1. Tinch o‘yinlar
2. Harakatli o‘yinlar
3. Aralash o‘yinlar

Biz sinonimlarni o‘quvchilarga o‘qitishda aralash tipdagи o‘yinlar sirasiga kiruvchi “**Kun va Tun**” o‘yinini qo‘llasak bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi doskaga ikki uchta sinonim so‘zlarni yozadi. O‘quvchilar o‘qiganlaridan so‘ng „Tun“ deb buyruq beriladi. Bolalar ko‘zlarini yumib oладilar. O‘qituvchi sinonim so‘zlar qatoriga biron sinonim bo‘lmagan so‘zni qo‘shib qo‘yadi. „Kun“ degan buyruqdan keyin o‘quvchilar ko‘zlarini ochadilar va qanday o‘zgarish bo‘lganini topadilar. Bu o‘yin orqali o‘quvchilarning topqirligini aniqlash mumkin. Yana shunday o‘yin borki, unda o‘qituvchi biror so‘zni aytadi o‘quvchilar uning sinonimini aytadi. Bu o‘yin “**So‘z top**” o‘yini sanaladi. Masalan, o‘qituvchi quyosh desa, o‘quvchi ostob deb javob berishi kerak. Bilmagan o‘quvchi jazolanadi. Unga 5 ta so‘z aytildi va ularning sinonimlarini topib daftariga yozib chiqadi. “**Davomini top**” o‘yini ham sinonimlarni o‘qitishda samarali hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi doskaga bir so‘zning sinonimlarini yozadi, masalan tulki, ayyor, tullak,, o‘qivchilar nuqtalar o‘rniga sinonimik qatordi davom ettiradi. Bunday o‘yinlar orqali o‘quvchilarning zehnini yanada oshirish, nutq boyligini ozgina bo‘lsada oshirish ko‘zda tutiladi. Didaktik o‘yinlar texnologiyasining dars jarayonida qo‘llash orqali darsni qiziqarli o‘tishini ta‘minlaydi. O‘qituvchilar o‘quvchilar bilan individual tarzida ishlaydi. Guruh oldida nutq bayon qilish qobiliyati past bo‘lgan bolalarni guruh bilan ishlashga o‘rgatadi va ularning nutqini yanada o‘stirishga yordam beradi. O‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Interfaol metod ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta’limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma’ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko‘pligi, o‘quvchilar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlardan yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sindjamoasi bo‘lib ishlash, qator boshida turadi topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib, ular ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega². Biz sinonim so‘zlar mavzusini o‘quvchilarga o‘rgatishda „Qor bo‘ron“ deb nomlangan interfaol usulni qo‘llasak bo‘ladi. Bunda o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linishadi, o‘qituvchi tomonidan savol beriladi, masalan, osmon so‘zining sinonimlarini toping. O‘quvchilar osmon so‘zining sinonimlarini topishga kirishadi, eng ko‘p so‘z topgan guruh yumaloqlangan qor ko‘rinishida o‘sha guruhga ball tariqasida yozib boriladi. Eng ko‘p ball olgan guruh a’lo baholanadi. Bu metodni qo‘llash orqali o‘quvchilarning tezkorligi va so‘z boyligi tekshirib olinadi.

² <http://manzura90.zn.uz/interfaol-metodlar>



Biz bilamizki, o'zbek tili sinonim so'zlarga juda boy. Fors-tojik va arab tillardan o'zlashgan so'zlar, rus tili va u orqali kirib kelgan so'zlar bilan o'zbek tilining o'z so'zlari ma'nodoshlik qatorini hosil qiladi. Nutqda ular saralanib, o'z o'rniqa moslab qo'llaniladi. Masalan, shifokor, vrach, doktor, tabib, hakim kabi so'zlarida har qaysisining nutqda o'z qo'llanish o'rni bor. Bu o'rinda biz "Miya hujumi" metodidan foydalansak bo'ladi. Masalan, chiroyli so'zining sinonimlarini topish o'rtaga tashlanadi. Javob berilayotganidan javob izohlanmaydi va o'rinsiz deb rad etilmaydi. Chiroyli-go'zal, suluv, ko'hli, barno, zebo kabi so'zlar sanalib o'tilgach o'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda berilgan javobni muhokama qilishadi. So'zlarni qaysi tildan o'zlashganligini aniqlashadi. Bu metod guruhni birlashtiradi va yakdil qiladi.

Ma'no nozikliklari tilda bo'yoq deyiladi, ular ikki xil boyoqli bo'lishi mumkin: hissiy bo'yoq va uslubiy bo'yoq. Hissiy bo'yoqli so'zlar ijobiy yoki salbiy xususiyati bilan o'zaro farqlanadi. Masalan, yuz, chehra, oraz, bet, aft, bashara, turq, nusxa kabi so'zlarda chehra va oraz so'zlari ijobiy, aft, bashara, bet, turq, nusxa so'zlari esa salbiy bo'yoqdir so'zlardir. Uslubiy bo'yoqdir so'zlar esa qaysi uslubga taalluqliligi bilan farqlanadi. Bunda asosan jonli so'zlashuv nutqi va kitobiy uslub qiyoslanadi. Masalan, mo'ysafid, keksa, qari, yoshuli(xorazm shevasida) so'zlari orasida mo'ysafid kitobiy uslubga xosligi, qari va yoshuli esa og'zaki nutqqa xosligi bilan farqlanadi. Bu o'rinda "Akademik munozara" metodini qo'llash mumkin. Bunda o'quvchilar ikki guruhga bo'linadilar, va o'rtaga so'z tashlanadi, birinchi guruh so'zning ijobiy va kitobiy uslubini topishadi, ikkinchi guruh esa ularning salbiy va so'zlashuv uslubini topishadilar. Berilgan vazifani bajarish uchun o'quvchilar maxsus tayyorgarlikka ega bo'lishlari kerak.

Ta'limda har qanday darsni tashkil qilishda eng foydali metodlardan biri "Aqliy hujum" metodi hisoblanadi. *"Aqliy hujum" metodi biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan usuldir. Aqliy hujum usulinining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar*³. Aqliy hujum metodi o'tilgan mavzuni takrorlashda, o'quvchilar tezligini oshirishda ko'p qo'llaniladi. Aynan sinonim so'zlar mavzusini o'rgatishda ham foydalansak o'quvchilarni yanada faolroq qila olamiz. Bu usulni biz asosan mavzu tushuntirilgandan so'ng o'quvchilarga uyg'a vazifa sifatida sinonim so'zlar ro'yxatini yodlash uchun berishimiz va keyingi darsimizda esa aqliy hujum metodi orqali yodlangan so'zlarni so'rasak samarali bo'ladi. Bu usul orqali o'quvchilar yodida ko'p so'zlarni saqlab qoladi va dars boshlanishida ularda faollik darajasi oshadi. Nutqda sinonimlarning har biridan ularga xos belgi-xususiyatlarini inobatga olgan holda foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Chunki ba'zi o'rnlardan sinonimik qatordagi bir so'zning o'rniда ikkinchisini qo'llash g'alizlikka olib kelishi mumkin. Masalan, chiroyli gul desak, suluv gul deb chiroyli so'zini suluv so'zi bilan almashtirib bo'lmaydi, bu nutqiy g'alizlikka olib kelishi mumkin.

Xulosa o'rniда aytish mumkinki, o'zbek tilini o'qitishda sinonimlardan foydalanish o'quvchilarning so'z boyligini, til bilimini oshirishning eng samarali usuli hisoblanadi. O'qituvchi darsni tashkil etishda yuqorida sanab o'tilgan interfaol usullardan va metodlardan, har xil o'yinlardan ko'proq foydalansa, o'quvchilarda o'sha fanga nisbatan munosabat o'zgaradi hamda qiziqishlari oshadi. Agarda darsni tashkil etishda har doim bir xil usuldan foydalanilsa, o'quvchilarda zerikish paydo bo'ladi. Shuning uchun ham har doim ko'rgazmali qurollar va metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Demak, o'qituvchilar ona tili fanini o'qitishda sinonimik o'qitishni kiritish orqali o'quvchilarni mohir va ifodali notiq hamda yozuvchi bo'lib yetishishlari uchun zarur vositalar bilan ta'minlashlari mumkin.

³ <https://oefen.uz/uz/documents/slaydlar/umumiy/aqliy-hujum-metodi>



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ona tili 5-sinfi uchun darslik.Toshkent- „G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”- 2020. 115-116-betlar.
2. H.Jamolxonov „Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent-,,Talqin"-2005.
3. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma / X.Muhiddinova, D.Xudayberganova, I. Umirov va boshq. —Toshkent “O‘qituvchi”, 2006. 208 b.
4. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi.-T.: O‘zbekiston, 2002.
5. Adabiyot o‘qitish metodikasi / o‘quv qo‘llanma: Q. Husanboyeva, R. Niyozmetova.Toshkent nashriyoti, 2018-yil. – 352 bet.